


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi – Toshkent viloyatining farovonligining asosi

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi jamiyatning jadal rivojlanish mezoniga aylandi. Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini, investitsiya muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilashga yordam beradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 621,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari (30,5 %), transport xizmatlari (23,6 %), moliyaviy xizmatlar (15,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,8 %) ustunlik qilmoqda.

### 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-mart oylari uchun)

	Hajmi, mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan % hisobida	Jami xizmatlar dagi ulushi %
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>3 621,5</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	102,4	123,4	2,8
moliyaviy xizmatlar	551,7	139,1	15,2
transport xizmatlari	855,7	101,5	23,6
shu jumladan: avtotransport xizmati	823,4	102,4	22,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	143,9	98,2	4,0
savdo xizmatlari	1 104,5	102,5	30,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	121,7	100,1	3,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	133,3	128,2	3,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	61,9	104,0	1,7
ijara xizmatlari	118,9	109,1	3,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	77,8	103,9	2,1
shaxsiy xizmatlar	106,5	107,4	2,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	121,6	113,4	3,4
boshqa xizmatlar	121,6	101,2	3,4


## 2020-yil yanvar-mart oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik sohasidagi xizmatlar (113,4 %), moliyaviy xizmatlar (129,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (104,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (123,4 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Eng past o'sish sur'atlari esa yashash va ovqatlanish xizmatlar (98,2 %), transport xizmatlar (101,5 %), tashkil etdi.


## 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (88,9 %) yetakchilik qilmoqda. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi. 2020-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 104,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi, ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.

## 2020-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsiklardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 71,3 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsiklar savdosidan tashqari) ulushi 17,0 % ni tashkil etdi. Avtomobil va mototsiklar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsiklarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 11,7 % ni tashkil qiladi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	o'tgan yilga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	o'tgan yilga nisbatan % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3 621,5</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>	<b>1 229,0</b>	<b>106,9</b>
<b>shaharlar:</b>					
Nurafshon	789,6	125,2	21,8	16 180,5	123,7
Olmaliq	218,5	103,5	6,0	1 664,3	101,9
Angren	159,6	101,7	4,4	845,5	100,3
Bekobod	139,7	103,0	3,9	1 455,2	101,3
Chirchiq	251,4	111,7	6,9	1 596,9	110,7
Ohangaron	63,3	103,8	1,7	1 665,8	101,0
Yangiyo'l	139,9	104,2	3,9	2 308,0	102,6
<b>tumanlar:</b>					
Oqqo'rg'on	83,7	101,7	2,3	796,1	100,1
Ohangaron	43,8	105,0	1,2	457,0	103,6
Bekobod	80,2	103,2	2,2	508,7	101,6



## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	o'tgan yilga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	o'tgan yilga nisbatan % da
Bo'stonliq	169,8	110,5	4,7	1 004,3	109,4
Bo'ka	84,0	104,2	2,3	668,2	102,6
Zangiota	265,7	104,2	7,3	1 343,8	102,8
Qibray	292,3	103,9	8,1	1 456,6	102,5
Quyichirchiq	52,0	104,1	1,4	480,7	102,4
Parkent	122,7	107,3	3,4	791,4	105,4
Piskent	43,2	103,3	1,2	427,6	101,6
Toshkent	182,1	104,8	5,0	1 007,5	103,1
O'rtachirchiq	110,8	100,3	3,1	740,3	98,5
Chinoz	88,2	101,0	2,4	659,1	99,4
Yuqorichirchiq	101,3	107,2	2,8	747,2	105,3
Yangiyo'l	139,9	101,9	3,9	665,5	100,4

Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Chirchiq (111,7 %), Nurafshon shaharlari (125,2 %), shuningdek Bo'stonliq (110,5 %), Yuqorichirchiq (107,2 %) va Parkent (107,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Eng past o'sish sur'atlari esa Chinoz tumani (100,6 %) va O'rtachirchiq (100,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi. 2020-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 229,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi.


## 2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 16 180,5 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,7 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Pskent tumanida 427,6 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (101,6 %), Ohangaron tumanida 457,0 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (103,6 %), Quyichirchiq tumanida 480,7 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (102,4 %) tashkil etdi.

## 2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi



Viloyatda eng katta ulush Nurafshon (21,8 %), Chirchiq (6,9 %) shaharlari va Qibray tumani (8,1 %) ga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Ohangaron (1,2 %), Quyichirchiq (1,4 %) va Piskent (1,2 %) tumanlarida kuzatildi.

## 2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



**Boshqa xizmatlar**  
3,4 %



**Savdo xizmatlari**  
30,5 %



**Shaxsiy xizmatlar**  
2,9 %



**Transport  
xizmatlari**  
23,6 %



**Aloqa va  
axborotlashtirish  
xizmatlari**  
2,8 %



**Moliyaviy  
xizmatlar**  
15,2 %



**Ta'lim  
sohasidagi  
xizmatlar**  
3,7 %



**Yashash va  
ovqatlanish  
xizmatlari**  
4,0 %



**Kompyuterlar va  
maishiy tovarlarni  
ta'mirlash bo'yicha  
xizmatlar**  
2,1 %



**Ko'chmas mulk  
bilan bog'liq  
xizmatlar**  
3,4 %



**Sog'liqni  
saqlash  
sohasidagi  
xizmatlar**  
1,7 %




**Me'morchilik  
muhandislik  
izlanishlari, texnik  
sinovlar va tahlil  
sohasidagi  
xizmatlar**  
3,4 %



**Ijara xizmatlari**  
3,3 %

## 2020-yil yanvar-mart oylarida jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi, %



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi Oqqo'rg'on (98,5 %), Pskent (98,5 %), tumanlarida va Yangiyo'l (97,8 %) shahrida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (5,6 %) tashkil etdi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74